



# DASTLABKI 100 KUN

2022-yil iyun-sentyabr

## TINGLASH VA O'RGANISH

---

**Toni B. Uotlington Sr.,**  
Pedagogika fanlari doktori  
*inspektor*



THE SCHOOL DISTRICT OF  
PHILADELPHIA

# Maktab okrugi inspektori Uotlingtonning murojaati



Men Filadelfiya maktab okrugi inspektori bo'lishdek sharaflı vazifani qabul qilar ekanman, mening birinchi o'rindagi ustuvor maqsadim tinglash va o'rganishdir. Lavozimimdagi dastlabki 100 kun davomida men hozirda nimalar juda yaxshi amalga oshirilayotganligi va nimalarni bajarishda kamchiliklar borligini aniqlash maqsadida strategik, mulohazali va xolisona suhbatlar va harakatlarni amalga oshirish bilan shug'ullanaman. Hamkorlik ruhidagi va natijalarga urg'u beriladigan yetakchilik uslubiga asoslanib, men ushbu buyuk shaharning tarixini o'rganish va Filadelfiya maktab okrugining "Maqsadlar va himoya mexanizmlari"ga erishish uchun nimalar qilish kerakligi haqida fikrlarni eshitish uchun ko'plab filadelfiyaliklar bilan muloqot olib boraman.

Filadelfiya noyob iste'dodlar va kollektiv resurslarga ega sho'shqin shahardir. Tenglik, aka-ukalik muhabbati, opa-singillarcha mehr va faollik an'analariga tarixan sodiq bo'lib kelganligi bilan mashhur bo'lgan ushbu shahar irqi, dini, jinsi, jinsiy orientatsiyasi yoki iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, barcha bolalarning jadal bilim olishiga imkon beradigan va ularning tug'ma iqtidorini ro'yobga chiqaradigan maskan bo'la oladi. Inspektor sifatida men o'quvchilarimiz, ularning oilalari, xodimlarimiz, shahar va shtat yetakchilari, uyushmalar, universitetlar, faollar, jamoat tashkilotlari va biznes liderlar bilan hamkorlik qilgan holda biz xizmat ko'rsatayotgan 198 645 nafar bolaning hayotdagi natijalarini yaxshilash bo'yicha eng murakkab vazifalarga bor e'tiborni, energiyani va ijodkorlikni jalb qilib shiddat bilan ishlayman. Bola bizning an'anaviy maktabda o'qiydimi yoki bizning charter maktabimiz o'qiydimi, bundan qat'iy nazar, biz, kattalar, ularning gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan resurslar, mehr va fidokorligimizni taqdim etishga doimo shay bo'lamiz. Bu ish og'ir bo'ladi, lekin farzandlarimiz o'zlari va oilalari uchun hayotni o'zgartiruvchi imkoniyatlar va natijalarni yaratishimizni bizdan kutadilar.

Mening dastlabki 100 ish kunim davomida siz mening ushbu shahar va maktab okrugi haqida sobitqadamlik bilan ma'lumot olishga bo'lgan fidokorligimni ko'rasiz, eshitasiz va his qilasis. Biz ezgu maqsadimizdan og'ishmasligimiz va urg'uni yo'qotmagan holda va maqsadga yo'nalgan holda harakat qilishimiz uchun men Ta'lim boshqarmamiz bilan mustahkam va mazmunli munosabatlar o'rnataman. shuning uchun biz axloqiy maqsadimizga aniq mos kelamiz va diqqat va niyat bilan harakat qilamiz. Shuningdek, biz barchamiz maktab tizimimizning muvaffaqiyatiga faol hissa qo'shishimiz va "Maqsadlar va himoya mexanizmlari"ga erishishimiz uchun mahalliy jamiyatimiz bilan hamkorlikni yanada kengaytiramiz.

Ushbu tinglash va o'rganish safari "Maqsadlar va himoya mexanimzlari"ni ifoda etuvchi beshta ustuvor yo'nalishga asosiy urg'uni qaratadi va u a'lolikga erishishga tomon uzoq va hamkorlikdagi sayohatning boshlanishidir. Bu jarayon natijasida birgalikdagi ishlarimizni to'g'ri olib borishga yordam beradigan xulosalar va tavsiyalardan iborat hisobot yaratiladi. Muvaffaqiyatli sayohatni intiqlik bilan kutib qolamanki, toki bu safarning natijasi shunday bo'lsinki, biz birgalikda "Bolalar qanday o'qimoqda?" deb so'raganimizda, "Barcha bolalar yaxshi o'qimoqda!" deb dalil va ishonch bilan javob bera olaylik. Bundan boshqa har qanday javobni aslo qabul qilib bo'lmaydi.

Siz bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati tug'ilgani uchun oldindan rahmat aytaman. Eng yaxshi kunlarimiz oldinda.

*Tony B. Watlington, Sr.*

***Ishonch | Hamkorlik | Adolat | A'lolik | Ilm olish***

# “Maqsadlar va himoya mexanizmlari”ga erishishni tezlashtirish uchun tinglash va o‘rganishning ustuvor yo‘nalishlari

Biz xizmat ko‘rsatayotgan barcha o‘ruvchilarni qo‘llab-quvvatlashdagi “Maqsadlar va himoya mexanizmlari”ga erishish yo‘lida birgalikda ishlar ekanmiz, tinglash va o‘rganish bo‘yicha ushbu beshta ustuvor yo‘nalish mening fikrlarim va g‘oyalarimni yetkazishda yordam beradi. “Maqsadlar va himoya mexanizmlari” haqida batafsil bilib olish uchun tashrif buyuring: [philasd.org/goalsandguardrails](http://philasd.org/goalsandguardrails)



## Ustuvor yo‘nalish 1

O‘quvchilar va xodimlarning farovonligini baholash



## Ustuvor yo‘nalish 2

Manfaatdor tomonlarni jalb qilish va ishonchni shakllantirish



## Ustuvor yo‘nalish 3

O‘qitish va o‘zlashtirishni baholash



## Ustuvor yo‘nalish 4

Okrugning liderlik salohiyati va muvofiqligini baholash



## Ustuvor yo‘nalish 5

Okrug amaliyotlari, ta‘lim sharoitlari va moliyasini baholash



# Ustuvor yoʻnalish 1

## Oʻquvchilar va xodimlarning

### Maqsad

Oʻquvchilar va xodimlar jismoniy yoki emotsional jihatdan xavfsiz boʻlmasalar, ular muvaffaqiyat va oʻsishga erisholmaydilar. Maktab okrugi sifatida biz farovonlik va xavfsizlik masalalariga birgalikdagi saʼy-harakatlar sifatida yondashishimiz, oʻquvchilar va xodimlar ilm olishi va oʻsishi uchun xavfsizlik tarmogʻini yaratish uchun meriya, shahar kengashi, biznes hamjamiyati, okruglarimiz va maktablarimizdagi asosiy manfaatdor tomonlarni jalb qilishimiz kerak. Oʻquvchilar farovonligi va xavfsizligiga boʻlgan yondashuvimiz oʻquvchilarimizga ijobiy dunyoqarashni rivojlantirishga yordam beradigan sogʻlom, mazmunli mashgʻulotlar bilan shugʻullanish uchun taklif va imkoniyatlarni taqdim qiladi. Biz oʻquvchilarimiz Filadelfiya ularga samarali fuqarolar boʻlishlari uchun taqdim etayotgan imkoniyatlar olamiga guvoh boʻlishlari uchun harakat qilamiz.

### Amaliy harakat qadamlari

1.1

Umumiy aloqalarni muvofiqlashtirish va jamiyat muammolari, jumladan, oʻquvchilar va xodimlar xavfsizligi masalalariga javob qilish uchun maktab okrugi inspektoriga hisobot beradigan jamoatchilik bilan aloqalar xodimini ishga yollash.

1.2

Oʻquvchining surunkali ravishda darslarga kelmasligi, uysizlik, favqulodda yordam va oʻquvchining maktabdan tashqari vaqti bilan bogʻliq muammolarini hal qilish yuzasidan shahar va jamoat liderlarini chaqirish boʻyicha ishlar qanday yoʻlga qoʻyilganligini koʻrib chiqish.

1.3

Shahar idoralari, jamoat tashkilotlari va muhim manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda yozgi, maktab darslaridan keyingi va qoʻshmacha oʻquv dasturi mashgʻulotlarini kengaytirish imkoniyatlarini baholash.

1.4

Maktab muhiti va maktab xavfsizligi masalalari boʻyicha oʻquvchilar, xodimlar, ota-onalar va jamatchilikdan fikr-mulohazalarni qabul qilishimiz va ularga javob berishimiz boʻyicha ishlar qanday yoʻlga qoʻyilganligini qayta koʻrib chiqish.

1.5

Maktabimiz/okrugimiz faoliyatini vaqtincha toʻxtatib turish va oʻquvchini maktabdan haydash haqidagi maʼlumotlarni koʻrib chiqish va baholash, ayniqsa maktablarimiz ichida va atrofidagi zoʻravonlik jinoyatlariga alohida eʼtibor qaratish.

1.6

Individual maktab muhitiga oid maʼlumotlarni koʻrib chiqish.

1.7

Oʻquvchilar va xodimlarning ruhiy salomatligini qoʻllab-quvvatlashga boʻlgan yondashuvimizni qayta koʻrib chiqish va biz oʻquvchilar va xodimlar uchun muvofiqlashtirilgan ruhiy salomatlik yordami va xizmatlariga toʻgʻri sarmoya kiritayotganimizni aniqlash.

1.8

Qayta tiklash amaliyotlari va ijobiy xulq, tuzatish va qoʻllab-quvvatlash dasturlariga kiritilgan investitsiyalarni baholash.



# Ustuvor yoʻnalish 2

## Manfaatdor tomonlarni jalb qilish va ishonchni shakllantirish

### Maqsad

Ishonchni shakllantirish tushunish uchun tinglashdan boshlanadi, soʻngra barcha oʻquvchilarga muvaffaqiyatga erishishga yordam berish ishida sheriklar sifatida samarali hamkorlik qilish va muloqot qilishdan iborat boʻladi. Jamiyatimiz, jumladan, oʻquvchilar, oilalar, xodimlar, shahar va shtat rahbarlari, uyushmalar, universitetlar, faollar, jamoat tashkilotlari va biznes liderlarining umid va orzularini tushunish biz uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, biz kuchli, hamkor tuzilmalarga ega ekanligimizni taʼminlashimiz va ichki va tashqi muloqotni qanday olib borayotganimizni baholashimiz kerak.

### Amaliy harakat qadamlari

- 2.1** Maktab okrugi inspektori bilan hamkorlik tuzilmalarini kengaytirish.
- 2.2** Taʼlim boshqarmasi prezidenti va vitse-prezidenti, mer, shahar kengashi, shtat rasmiylari va qonun chiqaruvchi delegatsiya, dindorlar jamiyati, biznes liderlari va jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashgan holda muhim liderlar bilan uchrashish.
- 2.3** Nimalar samara berayotgani va qaysi sohalar stressli/tashvishli sohalar ekanligini tushunish uchun oʻqituvchilar, maʼmurlar, yordamchi xodimlar, maktabdagi boshqa xodimlar va markaziy ofis xodimlari bilan yuzma-yuz va Zoom orqali majlislar oʻtkazish.
- 2.4** Kengash aʼzolari, direktorlar, oʻqituvchi xodimlari, oʻqituvchi boʻlmagan xodimlar va markaziy ofis xodimlari tomonidan tizim miqyosidagi xabarlar qanday tushunilishini aniqlash uchun ichki muloqot protokollarini, jumladan, ijtimoiy tarmoq strategiyasini baholash.
- 2.5** Muloqot protokollari, 1-yilning ustuvor yoʻnalishlari va maktab okrugi inspektorini baholash jarayonini koʻrib chiqish uchun Taʼlim kengashi sayyor uchrashuvlarini rejalashtirish.
- 2.6** Maktab okrugining muloqot va hamkorlik harakatlarining hozirgi holatini baholash, shuningdek, maktab okrugi veb-sayti va maktablar veb-saytlari sifatini baholash.
- 2.7** Barcha jamiyatlarning ustuvor tanlovlari va ehtiyojlarini aniq tushunish uchun “Tinglash va oʻrganish” safarlarini tashkil etish.
- 2.8** Hurmat va ishonch madaniyatini oʻrnatish uchun uyushma hamkorlarimiz bilan diskussiyalarni yoʻlga qoʻyish va ular bilan muloqot qilish.



# Ustuvor yoʻnalish 3

## Oʻqitish va oʻzlashtirishni baholash

### Maqsad

Natijasi oʻquv jarayonidagi yutuqlarning yaxshilanishiga va “Maqsadlar va himoya mexanizmlari”ga erishishga olib keladigan “Oʻqitish va oʻzlashtirish” bizning asosiy ishimizdir. Covid-19 oʻquvchilarning oʻqishida jiddiy qiyinchiliklarga olib keldi va endi biz oʻqituvchilarimiz va maktablarimiz yuqori sifatli oʻqitish va taʼlim olishga ustuvor ahamiyat berishlari uchun oʻquv dasturimizda izchillikni kuchaytirishni boshlashimiz kerak. Barcha oʻquvchilar nafaqat Filadelfiya maktab okrugini bitiribgina qolmay, balki kollejni bitirib va ishchi kuchi sifatida tayyor boʻlishlarini taʼminlash barcha maktab okrugi xodimlari, pudratchilar va koʻngillilarning maqsadi va masʼuliyatidir.

### Amaliy harakat qadamlari

- 3.1** Maktab faoliyatini yaxshilash boʻyicha saʼy-harakatlarni kuzatish va qoʻllab-quvvatlash maqsadida maktabga tez-tez va tizimli tashriflar jarayonini ishlab chiqish.
- 3.2** Maktab faoliyatini takomillashtirishni rejalashtirishning joriy holatini (jumladan, Maktab faoliyatini yaxshilash rejalarini) baholash va maktablarda oʻquvchilarni qoʻllab-quvvatlashning aniq koʻp bosqichli tizimi mavjudligini taʼminlash.
- 3.3** Maʼmuriyat xodimlari, oʻqituvchi va oʻqituvchi boʻlmagan xodimlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha joriy malaka oshirish saʼy-harakatlarini va byudjetda xodimlarni rivojlantirishga qilinadigan investitsiyalarga qanchalik urgʻu berilishini baholash.
- 3.4** Okrugdagi savodxonlik va matematika boʻyicha taʼlim tizimlarining izchilligini baholash.
- 3.5** Oʻquv oʻzlashtirish yutuqlari past boʻlgan sohalarga eʼtibor qaratish va oʻquvchilar muvaffaqiyatli oʻzlashtirishiga xalal beruvchi tendentsiyalarining asosiy sabablarini bartaraf etish uchun strategiyalar yoʻlga qoʻyilganligiga ishonch hosil qilish.
- 3.6** Joriy oʻquv dasturlari qanchalik keng qamrovli va tadqiqotga asoslanganligini va ular qay darajada standartlarga mos kelishini va oʻquvchilarning muvaffaqiyatli oʻzlashtirishiga/oʻsishiga imkon berishini aniqlash.
- 3.7** “Maqsadlar va himoya mexanizmlari” sari olgʻa siljishni qoʻllab-quvvatlash uchun oʻquvchilar va xodimlarning davomat koʻrsatkichlarini, oʻquvchilarning maktabni tashlab ketish koʻrsatkichlarini va oʻquvchilarning maktabni bitirish koʻrsatkichlarini baholash.



# Ustuvor yoʻnalish 4

## Okrugning liderlik salohiyati va muvofiqligini baholash

### Maqsad

Filadelfiya maktab okrugi uchun yuqori darajada samarali, hamkorlikka va natijalarga yoʻnaltirilgan madaniyatga ega boʻlish juda muhimdir. Kasbiy madaniyatga ega boʻlgan yuqori darajada samarali jamoa sifatida faoliyat yuritishimizni taʼminlash uchun biz “Maqsadlar va himoya mexanizmlari”ga erishish uchun liderlik salohiyatimizni baholash va rivojlantirishga intilamiz. Muallif Jim Kollinz aytganidek, biz avtobusda toʻgʻri odamlar borligini va ular toʻgʻri oʻrindiqlarda oʻtirishini taʼminlaymiz. Biz aʼlolikga tasodifan erisha olmaymiz. Bunga reja orqali erishiladi.

### Amaliy harakat qadamlari

- 4.1 Yakkama-yakka suhbatlar oʻtkazish va barcha toʻgʻridan-toʻgʻri hisobotlar bilan rezyume va brifing hujjatlarini koʻrib chiqish.
- 4.2 Ijro liderligini yaxshiroq bilish uchun liderlikni baholash inventarlarini boshqarish.
- 4.3 Filadelfiya davlat maktablari jamoasi aʼzolari, mahalliy liderlar va K-12 milliy ekspertlaridan iborat oʻtkazish guruhini tuzish.
- 4.4 Okrugning ustuvor yoʻnalishlari, eng soʻnggi yutuqlar haqidagi maʼlumotlarni koʻrib chiqish, joriy va kutilayotgan boʻsh ish oʻrinlarini koʻrib chiqish va liderlikni muhokama qilish uchun yuqori lavozimli xodimlar bilan sayyor yigʻilishlar oʻtkazish jamoa tuzilmalari va amaliyotlari.
- 4.5 “Maqsadlar va himoya mexanizmlari”ga erishish uchun joriy ofis strukturasi, muvofiqligi va salohiyatini koʻrib chiqish.
- 4.6 Maktab rahbarlarining (direktorlarning) tashkilotning joriy tuzilmasidagi mustaqilligi va vakolatlarini baholash.
- 4.7 “Maqsadlar va himoya mexanizmlariga erishish uchun hisobdorlik rejalari va tashkilot tarkibiy tuzilishini koʻrib chiqish uchun yuqori martabali xodimlar bilan ikkinchi marta sayyor yigʻilishni rejalashtirish.



## Ustuvor yo'nalish 5

### Okrug amaliyotlari, ta'lim sharoitlari va moliyasini baholash

## Maqsad

Filadelfiya maktab okrugidagi barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun amaliyotlar va moliya Kengash siyosatiga mos kelishi va a'lolik va shaffoflikni ifoda etishi juda muhimdir. Doimiy takomillashtirish modelidan foydalangan holda maktablarga yordam va xizmatlarni qanday oshirishni aniqlash uchun har bir bo'linma baholanadi. Bundan tashqari, biz ta'lim sharoitlarimiz bilan bog'liq muammolarning qanchalik chuqurligini baholaymiz.

## Amaliy harakat qadamlari

- 5.1** Amaliyotlar, inson resurslari va byudjet, jumladan boshlang'ich va o'rta maktablar uchun favqulodda yordam (ESSR) mablag'laridan foydalanish hamda mahalliy, shtat va federal grantlardan qanday foydalanilishi va baholanishi haqida bevosita hisobotlar bilan yakkama-yakka uchrashuvlar o'tkazish.
- 5.2** Okrug fondi balansi, moliyaviy prognozlar, resurslarni taqsimlash va byudjetlashtirish jarayonlarini ko'rib chiqish; okrug byudjeti va byudjet jarayoni o'quvchilarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini qo'llab-quvvatlash uchun qanchalik muvofiqligini baholash.
- 5.3** Bosh yuridik maslahat idorasi bilan yakkama-yakka uchrashuvlar o'tkazish va unda okrugga qarshi har qanday yaqinda bo'lib o'tgan/hozir bo'lib o'tayotgan sud jarayonlari yoki amalga oshirilmagan hukmlarni ko'rib chiqish va hozirda okrugga ta'sir etayotgan yoki ta'sir etish ehtimoli bo'lgan qonunlarga e'tibor qaratgan holda shtat ta'lim kodeksi haqida brifing taqdim etish.
- 5.4** "Maqsadlar va himoya mexanizmlari" hamda ta'lim sharoitlarini rejalashtirish jarayonidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning yutuqlarini yaxshilashga mos kelishini aniqlash uchun okrug sharoitlari va harakatlarini baholashni ko'rib chiqish.
- 5.5** Har qanday jamg'arma faoliyati va bu mablag'lar maktablarni qanday qo'llab-quvvatlashi haqida yangilanishlarni olish.
- 5.6** Asosiy okrug moliyaviy materiallari, byudjet, eng so'nggi audit, grantlar va Bosh inspektor idorasi va Ta'lim Kengashning Audit xizmatlari boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan boshqa hisobot va auditlarni ko'rib chiqish.
- 5.7** Joriy mehnat shartnomalari va muddatlarini ko'rib chiqish.
- 5.8** Okrug byudjetlar va xizmatlarning markazlashuvini qay darajada muvozanatlashini baholash.





THE SCHOOL DISTRICT OF  
PHILADELPHIA

# DASTLABKI 100 KUN TINGLASH VA O'RGANISH

Toni B. Uotlington Sr., Pedagogika fanlari doktori Maktab okrugi  
inspektori

Quyidagi sahifaga tashrif buyurib, batafsil ma'lumot oling:  
[philasd.org/100days](http://philasd.org/100days)

